



UDK:378.147(81`25)371.13

Sarvinov NEMATJONOVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: sarvinovnematjonova1991@gmail.com
ORCID ID: 0009-0008-9691-2341

NamCHTI dotsenti, p.f.d S.Misirov taqrizi asosida

METHODOLOGY FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS (ON THE EXAMPLE OF TRANSLATION STUDIES)

Annotation

This article analyzes the role of translation studies in developing the professional competencies of future foreign language teachers, as well as the methodology for teaching such subjects. It examines ways to develop translation skills based on scientific-pedagogical approaches, modern methods, and practical recommendations. The article highlights the possibilities of strengthening professional competence through translation practice.

Key words: professional competence, translation-related subjects, translation competence, modern methods.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ (НА ПРИМЕРЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ПЕРЕВОДЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН)

Аннотация

В данной статье анализируется роль переводческих дисциплин в развитии профессиональных компетенций будущих преподавателей иностранных языков, а также методика их преподавания. Рассматриваются пути формирования переводческих навыков на основе научно-педагогического подхода, современных методов и практических рекомендаций. В статье освещаются возможности укрепления профессиональной компетентности через занятия по переводу.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, дисциплины, связанные с переводом, переводческая компетенция, современные методы.

“BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (TARJIMA FANLARINI O‘QITISH MISOLIDA)”

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy malakalarini rivojlantirishda tarjima fanlarining o‘rni va ularni o‘qitish metodikasi tahlil etiladi. Ilmiy-pedagogik yondashuvlar, zamonaviy metodlar va amaliy tavsiyalar asosida tarjima ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Maqolada tarjima mashg‘ulotlari orqali kasbiy kompetensiyani mustahkamlash imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetensiya, tarjimaga oid fanlar, tarjima kompetensiyasi, zamonaviy metodlar.

Kirish. XXI asrda chet tillarini o‘qitish sohasida bo‘lajak pedagoglardan nafaqat mukammal til bilimlari, balki tarjima kompetensiyasi, madaniy kompetensiya va zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ega bo‘lish talab etiladi. Ayniqsa, tarjima fanlari chet tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida muhim o‘rin tutadi. Tarjima darslari orqali talabalar lingvistik, madaniy hamda metodik bilimlarini chuqurlashtirish bilan birga, kasbiy faoliyatida uchraydigan kommunikativ vaziyatlarga tayyor bo‘ladilar. Mazkur maqolada bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy malakalarini tarjima fanlarini o‘qitish orqali rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil etiladi

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kelajakdagi xorijiy til o‘qituvchilarining professional ko‘nikmalarini oshirishda tarjima fanlarining ahamiyati hamda ularni

o‘qitish usullari hozirgi tilshunoslik va pedagogikada muhim mavzulardan hisoblanadi. Ushbu sohadagi ilmiy izlanishlar ko‘pincha professional malakalar, tarjima jarayonini o‘rgatish usullari va lingvokulturologik yondashuvlar bilan uzviy bog‘liqdir. Tarjima ko‘nikmalari o‘qituvchining kommunikativ va metodik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim vositadir.

To‘xtasinov. I. M (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bo‘lajak o‘qituvchilarning professional kompetensiyalarini rivojlantirishda tarjima topshiriqlari orqali tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatda yo‘l topish va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyati qayd etilgan.

Yevropa Komissiyasining "Key Competences for Lifelong Learning" (2018) hujjatida esa tarjima faoliyati doirasidagi til va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi hayot davomida o‘rganilishi zarur

bo'lgan asosiy malakalardan biri sifatida ko'riladi. Bu, ayniqsa, pedagogik kasb egalari uchun alohida ahamiyatga ega.

D. Kelly (2008) tomonidan taklif etilgan tarjimonlarni tayyorlash modeli (Translator Trainer Competence) tarjima fanlarini o'qitishda metodik va kasbiy bilimlarni uyg'unlashtirish muhimligini asoslaydi. Ularning fikriga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilar tarjima orqali nafaqat lingvistik, balki pedagogik bilim va ko'nikmalarini ham mustahkamlashi mumkin.

[D.Kelly,2008]

S. Krashen (1982) tomonidan ilgari surilgan til o'rganish nazariyasida esa tarjima vositasi ikkilamchi bo'lishiga qaramay, tilni chuqur tahlil qilish va grammatik ongni rivojlantirishda foydali metod sifatida qaraladi. Bu yondashuv shuni ko'rsatadiki, tarjima fanlarining tilni puxta o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega.[S.Krashen (1982)].

Bundan tashqari, Common European Framework of Reference for Languages hujjatida ham tarjima faoliyati til malakalarining bir ko'rinishi sifatida tasniflanadi va bu kompetensiyalar chet tilini o'qitishda asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida baholanadi [CEFR, (2020)].

1-jadval. Tarjima fanlari asosida shakllanadigan kasbiy malakalar

№	Tarjima faoliyati turi	Shakllanuvchi kasbiy malaka	Qo'llaniladigan metodlar
1	Matnli yozma tarjima	Tahliliy fikrlash, grammatik kompetensiya	Matn tahlili, juftlikda ishlash
2	Og'zaki tarjima	Tezkor fikrlash, eshituv kompetensiyasi	Rol o'yinlari, imitatsion mashqlar
3	Madaniy kontekstda tarjima	Lingvokulturologik kompetensiya	Madaniyatlararo muhokama, taqqoslash
4	Kasbiy sohalarga oid tarjima	Sohaviy terminologik bilim, kasbiy kommunikatsiya	Kasbiy matnlar bilan ishlash, seminar

Tarjima fanlarini o'qitish jarayonida kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlardan foydalanish an'anaviy usullarga nisbatan talabalar kasbiy tayyorgarligini yuqori darajada ta'minlaydi. O'quvchilar faqatgina tilni emas, balki kasbiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan tarjimonlik va metodik ko'nikmalarni ham egallaydilar. Shuningdek, tarjima fanlarida interaktiv metodlardan foydalanish talabalarni faol fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga va kasbiy mas'uliyatni his qilishga o'rgatadi. Talabalar kasbiy nutq kompetensiyasi oshadi, ya'ni ular ilmiy, rasmiy va og'zaki tarjima bo'yicha chuqurroq bilimga ega bo'ladilar. Tarjima mashg'ulotlari jarayonida lingvokulturologik bilimlar chuqurlashadi, natijada talabalar milliy va xorijiy madaniyat elementlari bilan ishlash orqali madaniy kompetensiyalarini rivojlantiradilar.

Mashqlar va amaliy topshiriqlar asosida muammoli fikrlash hamda tahliliy yondashuvlar shakllanadi, bu esa kontekst asosida tarjima qilish ko'nikmalarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Talabalar tarjima metodikasi asosida darslarni loyihalashni o'rganadilar va metodik malakalari rivojlanadi.

Interaktiv o'qitish usullari - rol o'yinlari, kontekstual tarjima, hamda matnli tahlil -

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tarjima fanlari bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida nafaqat til kompetensiyasini, balki metodik, kommunikativ va madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish vositasi sifatida samarali qo'llanilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi:

Tahlil va sintez: tarjima fanlarini o'qitish bo'yicha mavjud adabiyotlar o'rganilib, metodik yondashuvlar tahlil qilindi.

Empirik kuzatuv: oliy ta'lim muassasalarida tarjima darslarining borishi kuzatildi.

So'rovnoma va empirik usullar bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalar, ularning ustozlari orasida so'rovnoma o'tkazildi va tarjima fanlarini interaktiv metodlar asosida o'qitish orqali kasbiy malakalardagi o'zgarishlar baholandi.

Tahlil va natijalar.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tarjima fanlarini zamonaviy metodlar asosida o'qitish quyidagi ijobiy o'zgarishlarga olib keladi:

qo'llaniladigan guruhlarda talabalarining o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi. Bu yondashuv talabalarining tarjima jarayoniga faol jalb qilinishini va mustahkam amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Shuningdek tarjimaga oid fanlarni o'qitish misolida bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish uchun quyidagi usullarni qo'llash orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

1.Integratsiyalashgan "Tarjimon-O'qituvchi" semantik loyihalari

G'oya: Tarjima nazariyasi, amaliy tarjima va lingvomadaniyatshunoslik kabi fanlar doirasida talabalarga haqiqiy hayotiy yoki akademik matnlarni (maqolalar, adabiy parchalar, texnik hujjatlar) nafaqat tarjima qilish, balki ularni o'quv materiallariga aylantirish vazifasini berish. Bu jarayonda ular matnning lingvistik va madaniy xususiyatlarini chuqur tahlil qilib, o'zlashtirilgan bilimlarini o'qitish jarayoniga tatbiq etishadi. Misol uchun talabalar zamonaviy ingliz adabiyotidan bir parchaning tarjimasini bajarishadi. So'ngra, ushbu parchadagi murakkab leksik birliklar, idiomatik iboralar yoki madaniy konnotatsiyalarni chet tili darsida qanday tushuntirish mumkinligi bo'yicha dars rejasini yoki vizual qo'llanma ishlab chiqishadi. Bu

ularning tarjima kompetensiyasi bilan birga didaktik ko'nikmalarini ham oshiradi.

2. "Qiyosiy lingvistika va tarjima tahlili" amaliy mashg'ulotlari.

G'oya: Chet tili va ona tili o'rtasidagi qiyosiy tahlillarni tarjima nuqtai nazaridan chuqurlashtirish. Bu seminarlarda talabalar turli janrdagi matnlarning asliyat va tarjima variantlarini solishtirib, tarjima transformatsiyalari (qo'shimchalar, tushirib qoldirishlar, o'zgartirishlar), madaniy ekvivalentlar va noto'g'ri tarjimalar sabablarini o'rganadilar. Maqsad – tilning nozik jihatlarini anglash va o'z darslarida potentsial qiyinchiliklarni oldindan ko'ra bilish.

Misol uchun talabalar bir xil mavzudagi, masalan, ekologiya haqidagi ingliz va o'zbek tilidagi maqolalarni tahlil qilishadi. Ular ushbu matnlardagi terminologiya, jumla tuzilishi va ritorik vositalarning tarjimada qanday aks etganini qiyosiy o'rganib, bu bilimlarni kelajakda darsda qanday qo'llash mumkinligini muhokama qilishadi. Bu ularga tilning chuqur tuzilishini va madaniy farqlarini o'rgatishda yordam beradi.

3. "Madaniyatlararo muloqotda tarjimon ko'prigi" roli o'yinlar va keyslar

G'oya: Tarjimaga oid fanlarni nafaqat lingvistik, balki madaniyatlararo muloqot ko'prigi sifatida o'rganish. Bu yerda bo'lajak o'qituvchilar turli madaniy kontekstlarda yuzaga keladigan tushunmovchiliklar yoki noto'g'ri interpretatsiyalarni tarjima orqali qanday hal qilish mumkinligini amaliy jihatdan o'rganadilar. Rolli

o'yinlar va real keys-stadi tahlillari orqali ular madaniy kompetensiyalarini oshirishadi.

Misol: Talabalarga ikki madaniyat vakili o'rtasidagi muzokaralar yoki suhbat parchalari beriladi. Ular tarjimon rolini ijro etib, faqatgina so'zlarni tarjima qilish bilan cheklanmay, balki madaniy konnotatsiyalar, imo-ishoralar va kontekstni ham hisobga olgan holda muloqotni samarali boshqarishga harakat qilishadi. Bu ularni madaniy sezgirlikka o'rgatadi va darsda madaniy bilimlarni yetkazish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tarjima kompetensiyalarini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati katta bo'lib, bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlashda nafaqat an'anaviy lingvistik bilim va ko'nikmalarni singdirish, balki ularning kasbiy kompetensiyalarini zamonaviy talablar darajasiga ko'taruvchi yordamchi multimedia texnologiyalaridan samarali foydalanishni ham ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda amaliy tarjima kurslari o'qituvchilarining malakasini oshirish, ularni zamonaviy tarjima tizimlari va texnologiyalari, xususan, tarjima xotirasi (Translation Memory – TM) tizimlari bilan ishlashga o'rgatish ustuvor vazifa hisoblanadi. Kelajak avlod o'qituvchilarini ushbu texnologiyalarni o'zlashtirgan holda tayyorlash zarurati mavjud.

Xulosa va takliflar. Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy malakalarini shakllantirishda tarjima fanlarining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Tarjima jarayonida olingan kompetensiyalar ularning kasbiy faoliyatida, ayniqsa metodik yondashuvda asosiy rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR

1. Kelly.D "Training the trainers: Towards a description of translator trainer competence and Training needs analysis" 2008
2. Krashen.S. "Theory of Second language acquisition .
3. Jeremy Harmer "The practice of English language teaching" Third edition. www.Longman.com.
4. European Commission. (2018). Key Competences for Lifelong Learning. <https://data.europa.eu/doi/10.2766/291008>
5. Yusupov. R (2025) Developing the professional competence of future foreign language teachers. Journal of applied science and social science,1(1), 407-411
6. Rustamova. N (2022) "Development the professional competence of students in conditions of informatization of the educational process". International Journal of Formal Education. Volume: 01 Issue :12/ dec-2022
7. CEFR – Common European Framework of Reference for Languages. <https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-languages>.
8. https://www.researchgate.net/publication/271129757_Training_the_Trainers_Towards_a_Description_of_Translator_Trainer_Competence_and_Training_Needs_Analysis.
9. Kiraly,D.C (2000) "A social constructivist approach to translator education: Empovement from theory to practice" St.Jerome publishing
10. Jeremy Munday "Introducing translation studies." (2016) 4th edition.